



## MASOFAVIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISH

Nurmuratov Anvar Yaxshibayevich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5910183>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Yanvar 2022

Ma'qullandi: 20- Yanvar 2022

Chop etildi: 25- Yanvar 2022

### KALIT SO'ZLAR

*masofaviy ta'lim, metod, texnologiya, o'qituvchi, talaba.*

### ANNOTATSIYA

*Ma'lumki, turli seminar, uchrashuv va konfrensiyalarda ochiq kodli aloqa platformalaridan foydalanish orqali masofaviy ta'lim uchun o'qitishning samarali metod va texnologiyalarini rivojlantirishga olib keladi. Ushbu maqolada masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitishning metodlari va texnologiyalari borasida fikr yuritiladi.*

Ta'lim jarayonini tashkil etish va sifatga erishish bu auditoriyadagi vaziyatni tartibga solish, boshqarish hamda talabalarni o'quv jarayonini bajarishga ruhlantirish demakdir. Masofaviy ta'lim uchun ta'lim berish va standartlashgan ta'lim konsipsiyasini yaratish, ya'ni o'qitish metod va texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Bu esa bugun jahonda ipedimeologik vaziyat barqarorlashmagan bir paytda yanada ahamiyatini oshiradi.

Ta'lim jarayonida turli ta'lim berish metodlari mavjud bo'lib, amaliyotda o'z natijasini bergan va o'qituvchilarimiz doimiy ravishda foydalanadigan metodlar barcha ma'lum. Shuningdek, dars berish davomida har bir o'qituvchining amaliyot va tajribasidan kelib chiqqan holda ko'proq foydalanadigan o'quv metodlari ham bor.

O'qituvchilarning o'z amaliyoti mobaynida diqqat markazda bo'lish, sifat bosqichiga erishish uchun o'z metodiga ega.

Ma'lum bir sohaning rivojlanishida uning isloh qilinishi, o'rganilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi natijasida uzluksiz boyitilib, kengayib, taraqqiy etib boriladi. Bu borada soha metodologiyasini rivojlantirish asosiy o'rin egallaydi. "Metod" tushunchasi yunoncha methodos "bir narsaga yo'l", ya'ni harakat, amaliy va aqliy faoliyat ma'lum usulida bajarilishidir.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Shuningdek, ushbu metodlarning boshqa, ko'plab nomlanishlari ham mavjud. Talabalarning chet tilini o'rganishdagi vazifasi berilayotgan ma'lumotlar bilan tanishish, ko'nikma hozil qilish, ya'ni



axborotning mohiyatiga yetishi uchun mashq qilish va uni amaliyotda qo'llash hisoblanadi. Ushbu vazifalar talabaning vazifasi bo'lsa, o'qituvchining vazifasi talabalarning o'qish jarayonini tashkil etishdan iborat. Shuningdek, talabalarning darsdan tashqari bajargan ishlarini tekshirib borish, ular bilan fanni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun uzluksiz hamkorlik o'rnatish ham o'qituvchi vazifasi deyishimiz mumkin. Talabalarga ta'lim-tarbiya berish o'qituvchining navbatdagi vazifasi hisoblanadi, ya'ni talabalarga axborotni tushuntirib yoki ko'rsatib berish, bayon etish, izohlash, to'g'rilash orqali o'quvchiga til materialini o'rgatishni anglatadi.

Shuningdek, talabalarning o'rganayotgan ma'lumotlarini tushunub anglashi va bajarayotgan mashqlarini to'g'ri bajarishi va talaffuzining ravonligini o'qituvchilar doimiy nazorat qilib borishi dolzarb hisoblanadi. Shu sababli talabalarning o'zlashtirishida tushunarsiz grammatik jarayonlar va tinglab tushunushda muammoli va noaniq holatlar o'qituvchilar tomonidan izohlab boriladi.

Talabalarning ingliz tilini o'zlashtirishida tanishish, mashq qilish va qo'llash metodlaridan foydalanishi to'g'risida aytib o'tildi. Shu o'rinda ushbu metodlarning alohida xususiyatlariga to'g'talib o'tishimiz lozim.

*Tanishish.* Bunda talabalar axborotni shakli, ma'nosi va qo'llanilishi bilan atroflicha tanishadi. YA'ni, o'rganilayotgan axborotni leksik va grammatik jihatdan tadqiq etilishi natijasida eshitish va ko'rish ko'nikmalaridan foydalanishni taqozo etadi.

*Mashq qilish.* Talabalarning axborotni tushunib, anglashlarida mashqlar yordamida mustahkamlanishi va

xotirada saqlanishi o'qituvchi tomonidan kuzatib boriladi va misollar bilan boyitib boriladi.

*Qo'llash.* O'rganilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash orqali ko'nikma hosil qilinadi va berilgan nazariy bilim mustahkamlanadi.

Ushbu metodlar ingliz tilini "O'qitish metodlari" hisoblanib, tilshunoslikda "O'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar" deb ham atalishi mumkin. Shuningdek, har biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu o'qitish metodlarida ko'proq misollardan foydalanish orqali talabalar mavzularni chuqurroq anglashi va o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Bunda talabalarning axborotni o'zlashtirishi jarayonida ularni o'qituvchi tomonidan nazorat qilishdan mustaqil ishlash bosqichiga o'tishi bugungi kun talabidir. YA'ni, talabalar mavzu doirasida mustaqil izlanishi, o'qituvchi tomonidan berilgan axborotlar ko'lamini kengaytirishi, guruhlariga bo'lingan holda mavzuni muhokama etishlari va amaliyotda qo'llashlari uchun misollar yordamida ko'nikma hosil qilishi muhim sanaladi.

Biz yuqorida bugungi kunda chet tilini o'qitishda nazariy jihatdan yo'nalish va faoliyat usuliga ko'ra mavjud metodlarga to'g'talib o'tdik. Ushbu metodlarning mazmunan nazariy jihatlari va talabalarning ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonidagi metodologik jihatlarga to'xtalib o'tildi.

Masofaviy ta'limni mazmunli tashkil etish uchun o'qituvchilar quyidagi omillarga tayanishi zarur:

- *Talabaga erkinlik berish.* Talaba o'zini erkin his etishini ta'mish uchun rasmiy muloqot uslubidan yiroq bo'lgan, oddiy so'zlashuvni yo'lga qo'yish;



- *Talabaga maqsad belgilab berish.*

Fan va mavzu unga ahamiyatsiz deb hisoblayotgan va e'tiborsiz talabalarga mavzuning ahamiyati va amaliyotda unga naf keltirishini aytib o'tish;

- *Individual yondashish.* Ko'pchilik talabalar individual munosabatni kutadi.

Dars boshida yoki davomida ularning shaxsiy xususiyatiga tuxtalish va shu orqali darsdagi ularning doimiy etiborini saqlab qolish;

- *Talabalarga doimiy yordam berish.*

Dars davomida ularning fikrlarining tug'ri ekanligi va javob hamda axboroti juda qiziq ekanligini eslatib turish. Bu esa ularning darsda faol bo'lishiga yordam beradi;

- *O'ziga xosligiga tayanish.* Darslar davomida talabalarining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qilgan holda ularga axborotni yetkazish, hamda ma'lumot qabul qilishda ushbu xususiyatlarini takomillashtirib borish;

- *Sodda ma'lumotlardan foydalanish.*

Talabalarga mavzuning tushunarli va tez anglashi uchun oddiy so'z hamda misollardan ishlatish;

- *Imtiyozlar berish;* Talabalarining faolligini oshirish va darslarga jalb etish uchun har bir ishtirokini e'tirof etib borish va fan doirasida imtiyozlar berish.

Masofaviy talimda chet tilini o'qitish uchun talabalarga axborotning oson qabul qilinishi va ularning tez tushunishlari uchun o'qituvchilar tomonidan sodda misollar keltirilishi talab etiladi.

Masofaviy ta'limda ingliz tilini o'qitish bosqichlari:

Yo'naltirish;

Oddiy misollardan foydalanish;

Sodda tildan foydalanish;

Tez-tez foydalaniladigan so'zlardan foydalanish;

Mafzu yuzasidan talabalarga avvaldan kalit so'zlar va axborotni yuborish;

Topshiriqlarni yetkazishda ularni izohlash.

Pandemiya munosabati bilan tashkil etilgan masofaviy ta'lim mobayonida masofaviy ta'limga turlicha yondashuv va uslublar asosida talabalarga ta'lim berildi. Va bunda masofaviy ta'lim yo'nalishi takomillashib bordi deb aytishimiz mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishimiz lozimki, jamiyatda har qanday yangilik, xususan ta'limdagi o'zgarishlar ham qiyinchilik bilan qabul qilinadi va bazan ancha vaqt o'tib tan olinadi. YA'ni maqsadli amaliyotda qo'llaniladi. Pandemiya davrida foydalanilgan masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning o'z ustida ko'proq ishlashlari va jonli tarzda doimiy qo'llab kelgan xoridjiy tillarni o'qitish metodlari o'z samarasini bermay qo'ydi. Shu o'rinda, nafaqat yosh o'qituvchilar, balki tajriba va malaka ko'nikmaga ega o'qituvchilarda ham chet tilini o'qitishda yangicha metodlardan foydalanishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Albatta, bunda ulardan yangicha dars berish muhitiga moslashishlari va bu borada tajriba ortirishiga sabab bo'ldi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Атабаева, К. Р. Преимущество дистанционного обучения в системе образования // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 5-7. — // <https://moluch.ru/archive/158/44573/>.
2. Hampel, R. and Hauck, M. (2004). Towards an effective use of audio conferencing in distance language courses, *Language Learning and Technology Journal* Vol. 8: 1, - Page.66-82.
3. Исраилова Д.Ш. В преподавании иностранного языка положительных и отрицательных влияний дистанционного обучения и роль статистического отчета // <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-itishda-ra-amli-vositalarning-a-amiyati-va-masofaviy-talimning-salbiy-izhobiy-zhi-atlari>
4. Nurmuratov A. Opportunities to improve the effectiveness of teaching english in distance education // <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1540/1671>
5. Haqqulov, Nabijon Qahramonovich (2020) "INTERNATIONAL TOLERANCE IN THE EDUCATIONAL VIEWS OF SIDDIKI-AJZI," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 10 , Article 46. <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss10/46>